O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:94.5

Abduvali RAXMATOV,
Mustaqil tadqiqotchi, TDSHU, o‘qituvchi, 186-umumiy o‘rta-ta’lim maktabi, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: abduvali@gmail.com. ORCID: 0000-0002-6461-0121

Dotsent, tarix fanlari doktori O. Radjabov taqrizi asosida

DYNAMICS OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES

Annotation

This article examines the dynamics of trade and economic relations among the Central Asian countries, namely Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan. Particular attention is paid to the formation of foreign trade policies after independence, changes in the volume of intra-regional trade, diversification of export and import structures, expansion of transport and logistics opportunities, and the development of regional economic cooperation.

Key words: Central Asia, trade and economic relations, foreign trade, exports, imports, economic cooperation, regional integration, investment, transport and logistics, economic integration.

ДИНАМИКА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В статье анализируется динамика формирования и развития торгово-экономических связей между странами Центральной Азии – Узбекистаном, Казахстаном, Кыргызстаном, Таджикистаном и Туркменистаном. Особое внимание уделяется формированию внешнеторговой политики государств региона после приобретения независимости, изменениям объемов взаимной торговли, диверсификации экспортно-импортной структуры, развитию транспортно-логистических возможностей и углублению процессов экономического взаимодействия.

Ключевые слова: Центральная Азия, торгово-экономические связи, внешняя торговля, экспорт, импорт, экономическое сотрудничество, региональная интеграция, инвестиции, транспортно-логистические связи, экономическая интеграция.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA SAVDO VA IQTISODIY ALOQALAR DINAMIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlari – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqa davlatlarining mustaqillikdan keyingi davrda tashqi savdo siyosatini shakllantirishi, o‘zaro savdo hajmining o‘zgarishi, eksport-import tarkibining diversifikatsiyasi, transport-logistika imkoniyatlarining kengayishi hamda iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, savdo-iqtisodiy aloqalar, tashqi savdo, eksport, import, iqtisodiy hamkorlik, mintaqaviy integratsiya, investitsiya, transport-logistika, iqtisodiy integratsiya.

Kirish. Markaziy Osiyo zamonaviy xalqaro munosabatlar va jahon iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mintaqalardan biridir. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonni birlashtiruvchi hududiy, tarixiy, iqtisodiy va madaniy omillar mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi uchun muhim zamin yaratadi. Ayniqsa, mintaqa davlatlarining mustaqillikka erishishi natijasida ularning xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mustaqil subyektlariga aylanishi savdo va iqtisodiy hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini shakllantirdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘z milliy iqtisodiyotlarini shakllantirish, tashqi savdo aloqalarini qayta tashkil etish va xalqaro bozor tizimiga integratsiyalashish jarayonini boshdan kechirdilar. Sobiq ittifoq davrida shakllangan xo‘jalik aloqalarining uzilishi ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mintaqalararo savdoda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Shu sababli yangi iqtisodiy sharoitda davlatlar o‘zaro savdo aloqalarini qayta tiklash, yangi bozorlarni izlash va transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishga intildilar.

XXI asrning dastlabki o‘n yilliklaridan boshlab Markaziy Osiyoda iqtisodiy jarayonlarning yangi bosqichi kuzatila boshlandi. Mintaqa davlatlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi, yangi transport koridorlarining shakllanishi, chegaradosh hududlar o‘rtasidagi savdoning rivojlanishi va ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayishi o‘zaro iqtisodiy aloqalarning mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirdi.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda o‘zaro manfaatdorlik, pragmatik hamkorlik va mintaqaviy integratsiyaga intilish tendensiyasi kuchaydi. Ayniqsa, davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy bitimlarning imzolanishi, chegaraoldi savdosining faollashuvi hamda transport-logistika loyihalarining amalga oshirilishi mintaqaviy iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur jarayonlarni tarixiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan o‘rganish Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikning mavjud holatini baholash, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va kelgusidagi istiqbollarini belgilash imkonini beradi. Shu jihatdan savdo-iqtisodiy aloqalar dinamikasini tadqiq etish nafaqat iqtisodiy, balki mintaqaviy barqarorlik, o‘zaro ishonch va integratsiya jarayonlarini anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyoda savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi masalasi iqtisodchilar, tarixchilar, siyosatshunoslar va xalqaro munosabatlar bo‘yicha mutaxassislarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mavzuga oid

ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda bir necha yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqillikdan keyingi iqtisodiy rivojlanishi va bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni qamrab oladi. Ushbu tadqiqotlarda sobiq ittifoqning yagona xo‘jalik tizimi parchalangach, mintaqa davlatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan tarkibiy o‘zgarishlar, tashqi savdo siyosatining shakllanishi va yangi iqtisodiy institutlarning vujudga kelishi tahlil qilingan.

Ikkinchi yo‘nalish mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va savdo aloqalari ga bag‘ishlangan ilmiy ishlardan iborat. Ushbu tadqiqotlarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy manfaatlarning mushtarakligi, mintaqaviy bozorni shakllantirish imkoniyatlari, savdo to‘siqlarini kamaytirish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo taraqqiyot va tiklanish banki hamda BMT tizimidagi tashkilotlarning hisobotlari mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarni statistik jihatdan baholashda muhim manba hisoblanadi.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlarning katta qismi alohida mamlakatlarning tashqi savdosi yoki ma’lum bir iqtisodiy yo‘nalishga bag‘ishlangan. Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni tarixiy-dinamik yondashuv asosida, o‘zaro savdo, eksport-import tarkibi, transport-logistika, investitsiya va mintaqaviy integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq holda kompleks tahlil qilish masalasi yanada chuqurroq tadqiqotni talab etadi. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo‘shliqni ma’lum darajada to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar dinamikasini kompleks o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiylik va xronologik yondashuv asosida Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishgan davridan boshlab savdo-iqtisodiy munosabatlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari o‘rganildi. Ushbu yondashuv iqtisodiy aloqalardagi muhim o‘zgarishlarni muayyan tarixiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kun xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan tarixiy voqealar va jarayonlar o‘zining o‘ta murakkabligi hamda keng ko‘lamligi bilan ajralib turadi. Globallashuv sharoitida mavjud bo‘lgan har qanday siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda Jahon bozorlaridagi vaziyat murakkablashib, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar o‘ziga xos tarixiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lib, so‘nggi yillarda bu aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sanaladi. Mamlakatimiz o‘zining zamonaviy taraqqiyoti davrida Markaziy Osiyo mintaqasining barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdor. O‘zbekiston taraqqiyoti mintaqaning umumiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq deya etirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotini Bosh Assambeleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida quyidagicha ta’kidlagan edi: “Tinch–osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir!”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusining amaliy ijrosi sifatida, 2018-yilning 22-iyunida Mirlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambeleyasi tomonidan “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” ta’minlash rezolyutsiyasining qabul qilinishi mintaqada yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro do‘stona do‘stlik va diplomatik aloqalarni mustahkamlashga zamin yaratan. Mazkur rezolyutsiyada Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni ta’minlash bilan bir qatorda savdo–iqtisodiy aloqalarni izchil yo‘lga qo‘yishdagi muhim roli e’tirof etilgan[2].

2016-yildan keyingi davrda O‘zbekiston Respublikasining savdo–iqtisodiy aloqalari tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu davrda respublika hukumati tashqi iqtisodiy siyosatida amalga oshirilgan islohotlar va tashqi savdo aloqalarini liberalizatsiya qilish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Bu davrda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasining barcha davlatlari bilan qo‘shma loyihalar, sarmoyalar, strategik tashabbuslari iqtisodiy aloqalarning yanada chuqurlashishiga turtki bo‘lmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishda transport va logistika infratuzilmasining ahamiyati yuksak baholanib kelmoqda. Xususan, “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” transport koridori mintaqa davlatlariga janubiy va sharqiy savdo yo‘llariga chiqish imkoniyatini yaratib, mintaqaviy va global savdo tizimidagi mavqe’yini mustahkalashga xizmat qilmoqda. Ushbu koridor orqali dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mintaqa mamlakatlariga Janubi–Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o‘rtanishga imkon yaratmoqda. Shu bilan bir qatorda, savdo hajmini oshirish va yangi bozorlarni zabt etishga qaratilgan yirik loyihalar mintaqaviy iqtisodiy intergratsiyani jadallashtirishga turtki bo‘lmoqda[3].

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar integrasiyalashuvi jarayonida mintaqa mamlakat rahbarlari doirasida tashkil etilayotgan maslahat uchrashuvlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, mazkur uchrashuvlarning dastlabkisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda Markaziy Osiyo davlatlarining savdo–iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, bu borada muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yishni taklif qilgan. 2019-yilning 29-noyabrida tashkil qilingan Toshkentdagi sammit doirasida esa, Markaziy Osiyoga savdo–investetsiya oqimlarini oshirish, global zanjirga integratsiyalashish imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish, savdo, energetika va transport yo‘laklarini boshqarish, chegaralardan o‘tish tartibi va bojxona tartib–tamoyillarini soddalashtirish bo‘yicha qo‘shma yondashuvlar tashkil etish borasida kelishuvlarga erishilgan. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining III maslahat uchrashuvida mintaqada iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirish bo‘yicha qat’iy qadamlar qo‘yilib, mintaqa ichidagi savdoni kengaytirish, to‘laqonli erkin savdo rejimiga o‘tish maqsadida mavjud to‘siqlarni bartaraf etish muhimligi qayd etilgan. Shuningdek, sammit davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Savdo–iqtisodiy hamkorlikning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi bitimni qabul qilishni taklif qilgan. Mintaqada savdo–iqtisodiy aloqalar dinamikasini rivojlantirish Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining keyingi maslahat uchrashuvlari doirasida ham asosiy kun tartibi masalalari qatoriga kiritilgan bo‘lib, mazkur sohaning mintaqadagi ahamiyatini namoyon qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy aloqalari savdo, kooperatsiya sanoati, energetika resurslari, qishloq xo‘jaligi kabi qator sohalarda rivojlanib bormoqda. Mintaqadagi savdo, sarmoyaviy va kooperativ loyihalar O‘zbekiston Respublikasi tashabbusi orqali rivojlanayotgan Markaziy Osiyo respublikalari bilan hamkorligi tufayli

rivojlanib bormoqda. Mintaqa mamlakatlarining etnik tarkibi, qulay geografik joylashuvi va iqtisodiy tizimlari o‘zaro savdo istiqbollarini yanada yaqinlashtirmoqda. Shunga qaramay, O‘zbekiston va Turkmaniston Respublikalari Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lmaganligi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalarining yuqoridagi tashkilotga a’zo ekanliklari savdo aloqalarini murakkablashtirayotgan omil sifatida baholanmoqda. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar bu borada ham mintaqa barqarorligi, ham har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mintaqada savdo tarmoqlarini kengaytirish, energetika resurslarini samarali taqsimlash a mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashga Markaziy Osiyo mintaqasi doirasidagi hamkorliklar juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, Markaziy Osiyoda iqtisodiy aloqalar va o‘zaro savdoni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi savdo siyosatining eng muhim maqsadlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotchi G‘.Mirzayev o‘zining O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy–gumanitar sohalardagi hamkorligi tarixi to‘g‘risidagi ilmiy ishida ta’kidlashicha, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududida Markaziy Osiyo mamlakatlari ishtirokidagi 2 064 ta qo‘shma korxona faoliyat yuritgan. Bu ko‘rsatkichlar quyidagicha taqsimlanib, mintaqa iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi ortib borayotganidan dalolat beradi:

Qozog‘iston bilan 1258 ta;
Qirg‘iziston bilan 320 ta;
Tojikiston bilan 305 ta;
Turkmaniston bilan 181 ta[4].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo mintaqasiga bo‘lgan xalqaro doiradagi qiziqish tobora ortib bormoqda. Dunyoning turli rivojlangan mamlakatlari hamda xalqaro siyosiy–iqtisodiy kuchlari mintaqada o‘z manfaatlarini ilgari surishga intilmoqda. Biroq ularning manfaatlari har doim ham mintaqa mamlakatlari manfaatlariga mos kelavermaydi. Shuning uchun ham Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘z manfaatlarini aniq belgilab olib, ushbu manfaatlarga erishish yo‘lida mintaqaviy jihatdan ichki imkoniyatlarini birlashtirishga harakat qilmoqda.

1-jadval

Yillar	O‘zbekiston–Qozog‘iston	O‘zbekiston–Qirg‘iziston	O‘zbekiston–Tojikiston	O‘zbekiston–Turkmaniston	O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi
2015	2697	136	167	320	24 924
2016	1899	167	197	209	24 232
2017	2056	254	238	178	26 566
2018	2920	403	391	303	33 429
2019	3335	820	481	554	41 751
2020	3006	907	493	538	36 256
2021	3921	955	606	902	42 170
2022	4651	1263	677	929	50 500
2023	4399	968	761	1096	62 567
2024	4278	846	702	1148	65 934

Muallif ishlanmasi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan 2015–2024-yillardagi tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari hisobida) [5].

Qozog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkori bo‘lsada, 2015-yilga kelib, savdo biroz susaygan. Biroq, 2020-yildan keyingi davrda bu ko‘rsatkich qayta tiklanib bormoqda. Qirg‘iziston Respublikasiga kelsak, 2015–2017-yillarda eksport mahsulotlari hajmi unchalik sezilarli bo‘lmasada, 2018-yildan boshlab keskin o‘sish kuzatilgan hamda 2022-yilga kelib maksimal darajada o‘sish qayd etilgan. Tojikiston Respublikasi bilan aloqalar yillar davomida sekin, lekin barqaror o‘sish sur’atlarida davom etmoqda. Turkmaniston respublikasi bilan eksport mahsulotlari hajmi to‘g‘risida gap ketganda, butun o‘rganilayotgan davr mobaynida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmagan. Umuman olganda, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro savdo aloqalari 2015–2016-yillardagi qisqa muddatli pasayishdan so‘ng, o‘sish tendensiyalariga ega bo‘lib, sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, Markaziy Osiyo respublikalari orasidagi iqtisodiy integratsiya tobora kuchayib borayotgan bo‘lsada, mazkur integratsiya hali ham to‘liq potensial darajasiga yetganicha yo‘qligi etirof etilmoqda. Buning sababi sifatida ayrim to‘siq va muammolarni keltirish mumkin. Jumladan, O‘zbekiston va Turkmaniston Respublikalarining Jahon savdo tashkilotiga a’zo emasligi, sanoat ishlab chiqarish bazasining modernizatsiyalashmagani, mintaqada o‘zaro raqobatga olib keluvchi o‘xshash iqtisodiy tuzilmalar mavjud emasligi kabi omillar savdo aloqalarini jadallashtirishga to‘siq bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotini Bosh Assambeleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. https://www.daryo.uz . Murojaat qilingan sana: 20.09.2017.
2. Elektron resurs: https://www.xs.uz.uz . Murojaat qilingan sana: 20.09.2019.
3. Khasanova, V.M. (2020). Development of transboundary trade and economic relations in Central Asia. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 1(4), 24-34.
4. Mirzayev G‘. (2022). Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida mintaqaviy hamkorlik. Oriental Journal of History, Politics and Law, 6(2), p: 164-170
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Ochiq ma’lumotlar. https://www.stiat.stat.uz. Murojaat qilingan sana: 20.12.2025.